



SPORTCHILAR DA'VOGARLIK DARAJASINI TADQIQ ETISH METODLARI

¹Jurayev Vohidjon
Muhammedovich

²Isroilova Malikaxon
Xolmamat qizi

¹Qo'qon DPI Psixologiya kafedrası
dotsenti Psi,f,f,d. (PhD).

vohidmuxammedovich31@gmail.com

²1-kurs magistrant

Annotatsiya: Maqolada sportchilar da'vogarlik darajasining diagnostik metodikalari va tadqiqot tanlanmasining xususiyatlari tavsifi, tadqiqot metodikalarini tasnifi, amalga oshirish usullari va ulardan olingan natijalarni tadbiiq etish to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalitso'zlar: Da'vogarlik darajasini aniqlash, intilish darajasini o'lash, ichki motiv, kognitiv motiv, qochish motivi, qarama-qarshilik motivi, o'z-o'zini baholash.

Sportchi faoliyatini tadqiq etish borasidagi urinishlar muammoning xilma xil yo'nalishga ega ekanligini ko'rsatdi. Bizning tadqiqotimiz esa sportchining da'vogarlik darajasini sport musobaqasida belgilovchi omil ekanligiga yo'naltirilganligi sabab tadqiqot metodikalarining aynan ushbu yo'nalishdagi psixologik xossalarini o'rganishga mo'ljallangan tadqiqot metodikalarini tatbiq etishni talab etdi. Shu sababli tadqiqotda biz sportchilarning da'vogarlik darajasi va u bilan o'zaro bog'liqlikka ega bo'lgan psixologik omillarning xususiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqot metodikalarida foydalanishni lozim topdik. Quyida tadqiqot metodikalarining xususiyatlari haqida yoritishga murojaat qilamiz.

Agar da'vogarlik darajasi sportchi faoliyati bilan bog'lab tadqiq etilsa, u holda sportchi o'z oldiga qo'ygan maqsadlarining qiyinligi uning da'vo darajasini belgilaydi. Maqsad qanchalik qiyin bo'lsa, da'volar darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Da'volar darajasi ikki jihatdan paydo bo'ladi-shaxs xususiyati va vaziyat xususiyati sifatida. Agar maqsadlar vaziyatga bog'liq bo'lsa, masalan, guruhdagi ayrim talabalar imtihonni yaxshi topshirsa, bu guruhdagi boshqa talabalar ham yaxshi bahoga da'vo qilishadi; agar imtixon topshiruvchi talabalar past baho olganliklarini bildirsalar, boshqa talabalarining da'vo darajasi pasayadi. Ko'p odamlar bir maqsad va o'rtacha guruh yutuqlari darajasiga asoslangan da'volar darajasiga ega. Biroq, har qanday vaziyatda muvaffaqiyatga yuqori da'vo qilgan sportchilar bor va aksincha, boshqalarning muvaffaqiyatga erishish istagi past bo'ladi. Bunday hollarda da'volar darajasi sportchining shaxsiy xususiyati bo'lib, uning hatti-harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu ikki toifadagi sportchilar alohida e'tiborni jalb qilishlari kerak.

Tadqiqot muammosini o'rganishga doir metodikalarning birinchisi da'vogarlik darajasini tadqiq etishga yo'naltirilgan. Mazkur masalani yoritishga mo'ljallangan metodikalarning xususiyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan metodikalar bazasi o'zgarib

boradi. Metodikalarni tanlashda Respublikamiz olimlari tomonidan tavsiya etilgan ilmiy manbalardagi va psixometrik talablar inobatga olinganlariga murojaat qilindi. Foydalanilayotgan metodikalarning birinchisi, V.K.Gerbachevskiyning “Da’vogarlik darajasini aniqlash (Intilish darajasini o’lchash)” metodikasidan foydalanish ko’zda tutildi. Mazkur metodikani tanlashning asosiy sababi uning tatbiq etish xususiyatidagi o’ziga xoslik bilan belgilangan. Birinchidan, metodikani o’tkazishda sinaluvchilarning biror bir topshiriq bilan mashg’ul bo’lgan sharoiti taqdim etiladi. Tadqiqot metodikasi sifatida tanlashning ikkinchi sharti sifatida baholash mezonlarining kengligi, uchinchi sharti esa da’vogarlik darajasini tadqiq etishga doir metodikalarning individual hamda guruhviy qo’llash xususiyatlariga egaligidir. Metodikaning baholash shkalalari quyidagilardan iborat:

- Ichki motiv- vazifaga bo’lgan ishtiyoqni ifodalaydi, vazifani jozibador qiladigan jihatlarni aniqlaydi.

- Kognitiv motiv - mavzuni o’z faoliyati natijalariga qiziqish sifatida tavsiflaydi.

-Qochish motivi - bundan kelib chiqadigan barcha oqibatlar bilan past natija ko’rsatish qo’rquvini ko’rsatadi.

- Qarama-qarshilik motivi - bu mavzu boshqa subyektlar faoliyatida yuqori natijalarga qanchalik ahamiyat berishini ko’rsatadi.

-Joriy faoliyatni o’zgartirish uchun motivatsiya. Mavzu hozirda u bilan shug’ullanadigan ishni to’xtatish tendensiyalarini ochib beradi.

- O’z-o’zini hurmat qilish motivi - bu subyektning bir xil faoliyat turida tobora qiyin maqsadlarni belgilash istagida ifodalanadi.

- Shaxsning motivatsion sohasining yadrosini tashkil etuvchi yuqorida sanab o’tilgan komponentlar subyektning muayyan faoliyat turiga bevosita rag’batlantiruvchi omillar sifatida harakat qiladi.

Ikkinchi guruh juda qiyin maqsadlarga erishish bilan bog’liq tarkibiy qismlardan iborat. Ular hozirgi ishlar bilan bog’liq:

-natijalarning ahamiyati - faoliyat natijalariga shaxsiy ahamiyat berish;

-vazifaning qiyinchilik darajasi;

-ixtiyoriy harakatlarning namoyon bo’lishi. Vazifa ustida ishlash jarayonida ixtiyoriy harakatlarning ifodalanish darajasiga baho beradi;

-erishilgan natijalar darajasini baholash. Muayyan faoliyat turidagi subyektning imkoniyatlari bilan bog’liq;

-sportchi shaxsining potensialini baholash.

Uchinchi guruh tarkibiy qismlariga sport faoliyatini istiqbolli baholash komponentlari kiradi:

– faoliyat maqsadlariga erishish uchun zarur bo’lgan sa’y-harakatlarni safarbar qilishning rejalashtirilgan darajasi;

– kutilayotgan ishlash darajasi;

To’rtinchi guruh jabhalar tegishli faoliyatning sabab omillarini aks ettiradi. U ikkita jabhalarni o’z ichiga oladi:

– Natijalarning muntazamligi. O’z maqsadlariga erishishda subyektning o’z imkoniyatlarini tushunishini ifodalaydi;

– Tashabbus. Shaxsning o’z oldiga qo’yilgan vazifalarni hal qilishda tashabbuskorlik va topqirlikning namoyon bo’lishini ifodalaydi.

Metodikaning ustvuvorlik jihatini baholash shkalalari nuqtai nazaridan belgilash mumkin.

Tadqiqotda foydalanilgan ikkinchi metodika sportchilarning o'ziga o'zi munosabat ko'rsatkichlarini Dembo-Rubinshteynning "O'z-o'zini baholash" metodikasi (A.M.Prixojan tomonidan modifikatsiya qilingan)

Ushbu metodika shaxsning bir qator shaxsiy sifatlarini, ya'ni sog'liq, xarakter, aql va h.k. kabi xususiyatlarini bevosita baholash (shkalalarda ifodalash)ga asoslangan. Tekshiriluvchilarga ushbu sifatlar ularda qay darajada rivojlanganligini (o'z-o'zini baholash ko'rsatkichi) va ushbu sifatarni qanchalik rivojlangan bo'lishini istashlari, ularni qoniqtirishi (da'vogarlik darajasi)ni vertikal chiziqlarda ma'lum bir belgilar bilan ko'rsatishlari so'raladi. Har bir siniluvchiga metodika bo'yicha ko'rsatma va vazifa yozilgan blank beriladi. So'ngra natijalarni baholashda esa quyidagi sifatlariga asolanib, o'zining xususiyatlariga baho beradi:

1. Sog'liq.
2. Aql, qobiliyatlar.
3. Xarakter.
4. Tengdoshlar orasida obro' e'tibor.
5. O'z qo'li bilan ko'p narsa qila olish, mohir qo'llar.
6. Tashqi qiyofa.
7. O'z-o'ziga ishonch.

Sinaluvchilar mazkur o'zingizdagi ushbu sifatning shaxs xususiyatingizning rivojlanishini qanday baholashingizni har bir to'g'ri chiziqda, chiziqcha (-) bilan ko'rsating. Shundan so'ng, ushbu sifat, xususiyatlaringizni rivojlanish darajasidan siz o'zingiz qanchalik qoniqqan yoki faxrlanganingizda, qanchalik bo'lishini iks (x) bilan belgilang.

Blankda har birining balandligi 100 mm (10 sm) ga teng 7 ta vertikal chiziq bo'lib, ushbu chiziqning yuqori va pastki nuqtalarini chegaralovchi chiziq bilan, shkala o'rtasi esa bilinar bilinmas nuqta bilan belgilangan bo'ladi. Metodikani butun sinfdan yoppasiga (frontal) yoki individual ravishda o'tkazish mumkin. Metodika frontal o'tkazilganida har bir o'quvchi birinchi shkalani qanday belgilanganini tekshirishi kerak.

Bunda (-) va iks (x) belgilarini to'g'ri ishlatilayotganiga e'tibor berish lozim. Ushbu metodikani o'tkazishda ko'rsatmani o'qish bilan birga ajratiladigan vaqt 10-12 daqiqani tashkil etadi.

Natijalarni qayta ishlash va izohlashda quyidagi mazmunda ish tutiladi: Natijalarni qayta ishlash 6 ta shkala bo'yicha olib boriladi (1-shkala, ya'ni sog'liq haqidagi shkala sinash uchun bo'lib hisobga olinmaydi). Har bir javob ballarda o'lchanadi. Yuqorida aytilganidek har bir shkalaning uzunligi 100 mm bo'lib, shunga asosan o'quvchi javobida 54 mm.ni belgilasa, biz buni 54 ball deb olamiz.

1. Oltita shkalaning har biridan quyidagilar aniqlanadi:

A) Da'vogarlik darajasi – shkalaning pastki nuqtasi 0 (nol) dan to x (iks) belgisigacha mm dagi masofa;

B) O'z-o'zini baholashning balandligi – "0" dan "-" (chiziqcha) belgisigacha;

V) Da'vogarlik darajasi bilan o'z-o'zini baholash belgilari, ya'ni "x" (iks) bilan "-" (chiziqcha) belgilari orasidagi farq. Agarda da'vogarlik darajasi o'z-o'zini baholashdan pastda bo'lsa, bunda u manfiy raqam bilan ko'rsatiladi.

2. Oltita shkalaning har birida ko'rsatilgan da'vogarlik darajasi va o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlarining o'rtacha kattaligini hisoblash.

Da'vogarlik darajalari: da'vogarlik darajasi 60 balldan 89 ballgacha bo'lsa, bunda da'vogarlik darajasini normadiligini, realligini bildiradi. Agarda natija 75 dan 89 ball oralig'ida bo'lsa, sinaluvchi o'z imkoniyatlari haqida optimal tasavvurga ega ekanligini bildiradi. Optimal yondashish shaxs sifatida rivojlanishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. 90 balldan 100 ballgacha bo'lgan natija esa ko'pincha o'quvchilarning o'z imkoniyatlariga noreal, notanqidiy yondashishni bildiradi.

Natija 60 balldan past bo'lsa, da'vogarlik darajasining pastligini bildiradi, bu shaxsning rivojlanishi salbiy ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, o'zini o'zi baholashda quyidagi mezonlarga asoslaniladi va o'z-o'zini baholash darajasi navbatdagi tahliliy munosabatda kuzatiladi: o'z-o'zini baholashda ballar 45 balldan 74 ball ("o'rtacha" va "yuqori") gacha bo'lsa, bu real (haqqoniy) baholanishni bildiradi.

75 dan 100 ballgacha ko'rsatkich esa o'z-o'ziga juda yuqori baho berganini bildirib, bunda shaxs shakllanishida ayrim og'ishlar borligini ko'rsatadi. O'z-o'ziga ortiqcha baho berish shaxsning yetuk emasligini, o'z faoliyatini to'g'ri baholashni va o'zini boshqalar bilan solishtirishni bilmasligini ko'rsatadi.

Sinaluvchining o'zini o'zi bunday baholashi shaxs shakllanishidagi aytarli darajada buzilganligini – "tadqiqotga yopiqligi"ni, o'zining xatolari, omadsizliklari, atrofdagilarning tanbeh va baholariga beta'sirligini va o'ziga olmasligini ko'rsatadi.

Natija 45 balldan kam bo'lsa bu o'ziga past baho berishini o'zini qadrlamasligini, shaxs rivojlanishida bir muncha salbiyligini bildiradi. Bunday o'quvchilar "xavfli guruh"ni tashkil etadilar, bundaylar odatda kam bo'ladilar. O'ziga past baho berish ortida umuman 2 xil psixologik ko'rinish bo'lishi mumkin: o'ziga kuchli ishonchsizlik yoki "himoyalani", bunda o'ziga "men hech narsani eplolmayman" deb baho berish, hech narsaga urinmaslikka, o'zgarmaslikka olib keladi.

Tadqiqotda foydalanilgan navbatdagi metodika sportchilarning oldiga qo'ygan maqsad bilan uning muvofiqligiga erishishni baholashdan iborat. Buning uchun Y.Shvarslanderning "Muvaffaqiyatga erishish (da'vogarlik darajasini aniqlash) metodikasi"dan foydalanildi [65,97]. Mazkur metodikaning tatbiq etish xususiyatlari sinaluvchilarning oldiga qo'ygan maqsadga muvofiqlik darajasini baholay olishini belgilab beradi. Metodikaning natijalarini talqin etishda quyidagi mezonlar belgilovchi rol o'ynaydi:

(5) va yuqori – da'vogarlik darajasi haqiqatdan ancha yiroq;

(3) – (4,99) – da'vogarlik darajasi yuqori;

(1) – (2,99) – da'vogarlik darajasi o'rtacha (ichki me'yordagi chegara);

(-1,49) – (0,99) – da'vogarlik darajasining quyi darajasi;

(-1,50) va past – da'vogarlik darajasining haqqoniylikdan ancha past darajasi.

Natijalarning me'yoriy ko'rsatkichlarining talqini quyidagicha mazmunga ega:

Baholash natijasiga ko'ra, o'rtacha da'vogarlik darajasi nomzodni real sharoitdan kelib chiqib muvaffaqiyatgan yo'nalganligi va o'z imkoniyatlarini mos baholashga moyilligini ifodalaydi. Ular o'rtacha daraja tavakkalni yoqlaydilar.

Da'vogarlik darajasini reallikdan yiroq yuqori va reallikdan yiroq quyi darajasiga ega bo'lgan nomzodlar kichik yoki katta tavakkal mavjud omadsizlikni oqlashni ta'minlaydi.

Da'vogarlik darajasi real darajali shaxslar o'zlariga ishonishlari, maqsadga qat'iy intiluvchan, faoliyati mahsuldor, erishganlarini baholashda tanqidiy yondashadilar.

Da'vogarlik darajasini reallikdan yiroq yuqori va reallikdan yiroq quyi darajasiga ega bo'lgan nomzodlar o'zlarini noxolis baholaydilar, haddan ortiq murakkab yoki haddan ortiq yengil maqsadlar qo'yadilar, yuqori xavotirlanuvchan, o'z kuchiga ishonmaydigan, erishganlarini tanqidiy baholamaydilar, xato prognozlaydilar.

Sportchilarning da'vogarlik darajasi bilan sport faoliyat motivatsiyasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tahlil etishda o'ziga xos aloqadorlikni tadqiq etishda Ye.A.Kalininning "Sport faoliyati motivlari so'rovnomasi"dan foydalanildi. Mazkur so'rovnomaning o'ziga xosligi sportchilarning faoliyatida yuqori natijalarga erishishiga xizmat qiluvchi xarakterga egaligi bilan xarakterlanadi. So'rovnomada 5 ta baholash shkalasi bo'lib, ular "erishishga ehtiyoj", "kurashishga ehtiyoj", "o'zini o'zi kamol toptirishga ehtiyoj", "muloqotga ehtiyoj" va "rag'batlantirishga ehtiyoj"dan iborat. So'rovnoma natijalari quyidagi me'yoriy mezonlarga muvofiq talqin qilinadi: 33-40-ball-juda yuqori motivatsiya, 28-32 ball-optimal darajadagi motivatsiya, 19-27 ball-kuchsizlangan motivatsiya, 10-18 ball-quyi motivatsiya.

Sportchilarning da'vogarlik darajasining psixik quvvat bilan ta'minlashga xizmat qiluvchi xususiyatlar sifatida shaxsning irodaviy sifatlari kiradi. Shu sababli ham sportchilar da'vogarlik darajasining sport natijalariga ta'siridagi irodaviy sifatlarning bog'liqligini tadqiq etishda ikkita metodikaga murojaat qilindi. Birinchisi M.V.Chumakovning "Shaxsning irodaviy sifatlari" so'rovnomasidir. Ushbu so'rovnomaning professor E.G.G'oziyev tomonidan modifikatsiya qilingan variantidan foydalandik. Test mohiyati, uning prinsipi, tuzilishiga binoan semantik o'xshashlikka ega bo'lgan atamalar (sifatlar, fazilatlar)ga asoslanib, shaxsning irodaviy sifatlarni muayyan shkalalarga ajratish mumkin. Test modifikatsiya qilinganda aniq qoidalarga asoslanishi, muayyan tartib bo'yicha joylashtirilishi qat'iy tartib bo'yicha joylashtirilishi qat'iylashtirilgan. Irodaviy sifatlarni ijobiy va salbiy qutblarga birlashtirilgan. Test shkalasini bayon qilishda uning punktlaridan (faktorni vujudga keltiruvchi sifatlardan) misollar keltiriladi (qavs ichida oldin shkalaning ijobiy polyusida joylashgan sifatlari hamda trening o'ng tomonida salbiy polyusdagi xislatlar keltiriladi). Quyida irodaviy sifatlarning mazmuniy ifodasi keltiriladi. Ular sportchilarning da'vogarlik darajalari bilan o'zaro bog'liqliklarni bayon etishga asos bo'lib xizmat qiladi. Irodaviy sifatlarni tavsiflashdan oldin, Professor E.G.G'oziyevning irodaga bergan izohlarini keltirib o'tish o'rinlidir [27].

1. Iroda-buinsonning qo'yilgan maqsadlariga yo'naltirilgan ong'lifaolligidir.
2. Iroda-bushaxsning o'z faoliyatini vatash qiolamdagio'zini o'ziboshqarilish shakllarini anglashning tavsifidir.

3. Iroda-insonyaxlitongining birtomon hisoblanib, u ongning barcha shakl va bosqichlariga taalluqlidir.

4. Iroda-bu amaliyong, o'zgaruvchi va qayta quriluvchi olam, shaxsning o'zining liidora qilishligidir.

5. Iroda-bu shaxsning hissiyotiva aql-zakovati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatidir, ammo qaysidir harakatning motivi (turtkisi) hisoblanmaydi.

6. Maqsadga erishish yo'lida uchraydigan qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish jarayonidagi o'zgarish bilan uyg'unlashgan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan ongli harakatlar irodaviy harakatlarda deyiladi.

7. O'ziga mahliyo qiluvchi maqsadga erishish yo'nalishidagi xavf-xatar, yo'qotish dahshati, muvaffaqiyatsizlik unisurib hamohang, ogoh, dadil harakatlarda vakalchilik deyiladi.

8. Bazali irodaviy sifatlar irodaviy jarayonlarasosidavujudgakeladi, ammo bunda uning intellektual va axloqiy jabhalari ishtirok etmaydi.

9. Bazali tizimga kirmagan irodaviy sifatlar ikkilamchi deb nomlanadi, chunki ular dabilimlar, ko'nikmalar, emotsiyavai intellektning paydobo'lishi mujassamlashadi.

10. Iroda inson tomonidan o'z xulqiva faoliyatini ongli ravishda boshqarish sifatida baholanadi, maqsadga yo'naltirilgan hatti-harakat hamdaxulq-atvorning amalga oshirishidatashqi, ichki qiyinchiliklarni yengib o'tish tariqasida riflanadi.

11. Insonning favqulodda vaziyatda yuzagakeladigan sarosimali kaffekti, dahshat, hayajonlanish, ajablanish, shubhalanish va shungao'xshash boshqamohiyatli, har xil shakldagi hatti-harakatlar ixtiyorsiz deyiladi.

12. Irodashaxsning psixologik qiyofasi, uning ijtimoiy hayotiva faoliyatisharoitidaturli xborotlarnatijasisifatida yuzagakelgan motivlarning xususiyativamaqsadibilan uyg'unlashgandir.

Yuqoridagi mulohazalardantashqari, psixologiyafaniqonuniyatigabinoanirodaviy sifatlar ikitakattaturkumga ajratiladi: musbat (ijobiy) vamanfiy (salbiy). Irodaviy sifatlar to'g'risidafikryuritilganda ularning miqdori (psixologik va filologik lug'atlarda) minggayaqinekanligita'kidlab o'tiladi. Ularning semantiktuzilishiga qaraganda, judakeskindarajadaqisqartirishni taqozo etadi. Shungao'xshahilmiyomillarga asoslangan holda asosiy (ustuvor) irodaviy sifatlar kelib chiqishi, funksional apparati, mohiyati, tuzilishi, ko'lami, ko'pqirraliligikabi omillarga binoant o'qqiztaturkumga ajratiladi, lekin psixologolimlar o'rtasidayakka-yu, yolg'iz xususiyatga egabo'lgan qarashlar vatalqinlarmavjud emas.

Ushbu bo'linishni quyidagichatahlilvatalqin qilish mumkin:

1. Mas'uliyatlilik: a) ijobiy turkum safiga quyidagilarni kiritish mumkin; mas'uliyatli, iltifotli; b) salbiy ma'noa ksettiruvchi turkum: mas'uliyatsiz, ishonchsiz, pala-partishkabilar.

2. Tashabbuskorlik: a) yetakchi, ish bilarmon, kuchli, tashabbusli, g'ayratli, obro'li, uzoq niko'ruvchanlik; b) befaol, betashabbus, dangasa, beg'ayrat.

3. Qat'iyatlilik: A) jasorat, dadilishonchli, qat'iy; b) jasoratsiz, ishonchsiz, ikkilanuvchi, shubhalanuvchi.

4. Mustaqillik: a) mustaqil, erksizlik; b) nomustaqillik, boshqariluvchan, itoatkor.

5. Sabr-toqatlik: a) sabr-toqatli, chidamlilik, aqlli, ehtiyotkor; b) sabrsiz, o'zini-o'ziboshqaruvchi.

6. Tirishqoqlik: a) tirishqoq, jangovor, shijoatli, chidamli; b) quvvatsiz, shijoatsiz, bequvvat, betirishqoq.

7. G'ayratlilik: a) faol, g'ayratli, serg'ayrat; b) bequvvat, lanj, nekbinlik, turg'unlik.

8. Ziyraklik: hushyorlik, hushyor, ixcham, yig'noq.

9. Sobitqadamlik: sobitqadam, qat'iyatli, tirishqoq, shiddatlivahokazo.

To'qqiztao'zigaxosma'no-mohiyatgaegatushunchalar test
pozitsiyasidaifodalangan information
ma'lumotlaryuklamasinio'zidamujassamlashtirgansavollarta'kidlabo'tilganterminvaat
amalarniifodalashorqaliirodaviysifatlariniifodalashorqaliirodaviysifatlarinio'zidagavda
lantiradi. Sportchilarning so'rovnoma bo'yicha natijalari sportchilarning da'vogarlik
darajasiga ko'ra talqin etiladi. Oqibatda miqdoriy me'yorlar quyida (1-4 ball), o'rta (5-8
ball) va yuqori (9-10 ball) irodaviy sifatlarni shakllanganligi tarzida talqin etiladi.

Navbatdagi metodika esa Dj.Rotterning subyektiv nazorat darajasini aniqlash metodikasidir. Metodikaning xususiyatlari sportchilarning da'vogarlik darajasiga ko'ra ular da nazoratning lokallashtirilganlik, ya'ni o'zining irodaviy tartibga solish xususiyatlarining aloqadorligini o'rganish ham ko'zda tutildi. Mazkur so'rovnoma o'zbek milliy-madaniy muhitidagi tadqiqotlarda qo'llanilib kelinmoqda va ilmiy adabiyotlarda keltirilgan shakllaridan foydalanish mumkin [65]. Metodikada yettita baholash shkalasi mavjud bo'lib, sportchilarda subyektiv nazoratni – umumiy internallik (Iu), erishganlik sohasi bo'yicha internallik (Ie), omadsizlik bo'yicha internallik (Io), oilaviy munosabatlar bo'yicha internallik (Iomun), ishlab chiqarish munosabati bo'yicha internallik (Iish), shaxslararo munosabat sohasida internallik (Im), salomatlik va kasallikka munosabat bo'yicha internallik (Is) shkalalar bo'yicha o'rganish imkoniyatini beradi. Natijalarni qayta ishlash uchun maxsus tartibga asoslaniladi va yakuniy ko'rsatkichlar standart o'nlik tizimi (sten) bo'yicha tahlil qilinadi. Qiymat >5,5 iborat bo'lsa, u holda nazorat subyektiv nazorat internallikka aloqadordir. Qiymat <5.5 bo'lsa, subyektiv nazorat eksternallikka aloqador.

Tadqiqotdagi metodikalarni tatbiq etishdan olingan empirik qiymatlar sportchilarning da'vogarlik darajasi bilan o'zaro aloqadorlikda yoritiladi. Bu esa sportchilarning faoliyat natijalariga erishishida da'vogarlik darajalari bilan bir qatorda psixik xususiyatlarning boshqa jabhalaridagi ta'siri ham o'rganiladi.

Xulosa. Mazkur maqoladagi bayon etiladigan masala tadqiqot tanlanmalari masalasining xususiyatlarini inobatga olishdan iborat edi. Tadqiqotda sportchilar deb murojaat qilishimizning asosiy sababi ularning sport bilan dastlabki shug'ullanish bosqichi nuqtai nazaridan sport maktabi o'quvchilari, sportda erishgan yutuqlarning bosqichi nuqtai nazaridan hamda professional sportga kirib borish xususiyatiga ko'ra sport madaniyati va jismoniy madaniyat yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar

tanlanadi. Shuningdek, tadqiqot obyektlarini sport turlari, ya'ni individual va jamoaviy sport o'yinlari ham inobatga olinadi.

Adabiyotlarro'yxati

1. Гербачевский В.К. Исследование уровня притязаний в связи с индивидуально-типическими характеристиками эмоциональности и интеллекта: автореф. канд. психол. наук. Л., 1970.

2. Гербачевский, В.К. Исследование уровня притязаний в связи с индивидуально-типическими характеристиками эмоциональности и интеллекта: автореф. дис. ...канд. психолог. наук / Гербачевский Владимир Константинович.- Л., 1970. - 16 с.

3. Jurayev, Vohidjon Muhammedovich. "SPORTCHILARNING DA'VOGARLIK DARAJASINI SPORT FAOLIYATIGA TA'SIRINI BELGILOVCHI YETAKCHI PSIXOLOGIK OMILLAR." *Academic research in educational sciences* 1 (2024): 214-217.

4. Jurayev, Vohidjon Muhammedovich. "SPORTCHILARNING DA'VOGARLIK DARAJASI BILAN FAOLIYATI MOTIVLARINI SPORTDAGI NATIJALARGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI." *Academic research in educational sciences* 1 (2024): 251-256.

5. Джураев, Вохиджон Мухаммедович. "ШАХСДАГИ ДА'ВОГАРЛИК ДАРАЖАСИ ВА ЎЗ-ЎЗИНИ БАҲОЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ТОМОНЛАРИ: Жураев Вохиджон Мухаммедович Кўкон давлат педагогика институти Жисмоний маданият методикаси кафедраси мустақил тадқиқотчиси." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 6 (2023): 322-324.

6. Muhammedovich, Jurayev Vohidjon, and Ismoilov Islomjon Qaxramonjon o'g'li. "DA'VOGARLIK PSIXOLOGIK FENOMENINING PSIXOLOGIYADA TADQIQ ETILGANLIK HOLATI." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY* (2024): 434-439.